
IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ OILA FARZANDLARINING XATNA TO'YLARI O'TKAZILDI

1 iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan Toshloq tumanidagi “Chek” MFYda 10 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlarining xatna to'ylari o'tkazildi.

Unda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektorlar rahbarlari, mahalla faollari, to'y bolalarning ota-onalari va yaqinlari qatnashdi.

Dastlab, tuman hokimi so'zga chiqib, bolajonlarni keljakda yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan komil shaxs bo'lib kamol topishlari, Vataniga sadoqatli, ziyoli insonlar bo'lishini tiladi.

10 nafar to'y bolaning oila a'zolari va mehmonlar uchun to'kin to'y dasturxoni yozilib, bolajonlarning har biriga qimmatbaho sovg'alar ulashildi.

2023-06-01 12:17:54